

тармоқларда ёшлар тadbirkorлиги фаолиятини йўлга қўйишга оид қисқа роликлар ва маълумотларни жойлаштириб бориш зарур.

Учинчидан: маҳалла фуқаролар йиғини ҳамда Давлат активларини бошқариш агентлиги билан жойлардаги бўш бинолардан (ёки бинонинг бир қисмидан) самарали фойдаланиш чораларини кўриш бўйича ҳамкорликни кучайтириш орқали ёшларнинг бандлигини таъминлаш лозим.

Тўртинчидан: ёшларнинг катта қисми мавсумий иш билан банд бўлишини ҳисобга олиб, уларнинг куз-қиш мавсумида ишсиз қолишларининг олдини олиш мақсадида маҳаллий ижро органлари ва бошқа манфаатдор ташкилотлар билан биргаликда қиш мавсумида ёшларни бандлигини таъминлашга қаратилган тadbirkorлик фаолияти турларини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш чораларини кўриш лозим.

Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Узаков К.П. Камбағалликни қисқартиришда аҳоли бандлигини таъминлаш масалалари. // *Academic research in educational sciences*. 2021. № 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kamba-allikni-is-artirishda-a-oli-bandligini-taminlash-masalalari>
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида шакллантирилди.
3. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/07/01/work/>
4. Karnani A.G. Reducing poverty through employment. // *Ross School of Business Paper*. 2009. № 1132.
5. Baxter A. et al. Youth entrepreneurship education and training for poverty alleviation: A review of international literature and local experiences. // *International educational innovation and public sector entrepreneurship*. 2014. С. 33-58.
6. Cooney K., Williams Shanks T. R. New approaches to old problems: Market-based strategies for poverty alleviation. // *Social Service Review*. 2010. Т. 84. № 1. С. 29-55.
7. Разумов А. Рынок труда и бедность трудоспособного населения. // *Изучение проблем бедности в России*. – М.: Алек, 2005. – 224 с. С. 124.
8. Козлова Ольга Анатольевна, Макарова Мария Никитична. Сокращение бедности в России в контексте реализации национальных целей развития. // *Журнал экономической теории*. 2020. № 4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sokraschenie-bednosti-v-rossii-v-kontekste-realizatsii-natsionalnyh-tseley-razvitiya>
9. Мезенева М.В. Бедность молодых семей: стратегия и особенности преодоления (на примере Вологодской области). // *Вестник Санкт-Петербургского университета. Социология*. 2011. № 4. С. 390-398.
10. Қурбонов С. Унумли бандлик тақчиллиги даражасини баҳолашнинг камбағалликни қисқартиришда зарурати. // “Экономика и туризм” международный научно-инновационный журнал. 2023. Т. 2. № 10.
11. Shadieva G.M. The essence of the concept of poverty-theoretical views. // *Confrencea*. 2022. Т. 5. № 5. С. 133-137.
12. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари.
13. <https://yuz.uz/news/mehnat-bozorida-yoshlar-raqobatdoshligi-oshirilmogda>
14. Do'stov Baxodir Tashpulatovich. Kambag'allikni qisqartirish va maqsadli ijtimoiy dasturlar. // *Ta'lim fidoyilari*. 2022. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kambag-allikni-qisqartirish-va-maqsadli-ijtimoiy-dasturlar>
15. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилди.
16. <https://mehnat.uz/uz> – Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги сайтидан олинди.
17. <https://uza.uz/uz/posts/bitiruvchi-yoshlar-bandligiga-qanday-komaklashilyapti-488724>

Jamshid Xudoyberdiyev. Milliy iqtisodiyotda kambag'allikni qisqartirish siyosati va uning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari. // *Science and Education*. 2023. № 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-iqtisodiyotda-kambag-allikni-qisqartirish-siyosati-va-uning-ijtimoiy-iqtisodiy-mexanizmlari>



AHOLI FAROVONLIGI DARAJASIGA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATKICHLARINING TA'SIRINI MODELLASHTIRISH

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a26

Toshaliyeva Saodat Toxirovna -
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Termiz davlat universiteti dotsent

Annotatsiya. Maqolada Legatum aholi farovonligi indeksiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi hajmi ko'rsatkichining ta'siri modellashtirilgan. Modellashtirishda chiziqli, eksponensial va darajali tenglamalardan foydalanilgan. Eng maqbul model tuzilib, aholi farovonligini ifodalovchi Legatum indeksining 2023-yilga qadar ko'rsatkichlari prognoz qilingan.

Kalit so'zlar: model, legatum farovonlik indeksi, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, regressiya, chiziqli model, eksponensial model, darajali model.

МОДЕЛИРОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА НА УРОВЕНЬ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ

Тошалиева Саодат Тохировна-

*Доктор философии по экономическим наукам (PhD), доцент
Термезский государственный университет*

Аннотация. В статье моделируется влияние показателя размера малого бизнеса и частного предпринимательства в отрасли на индекс процветания Legatum. При моделировании использовались линейные, экспоненциальные и степенные уравнения. Составлена оптимальная модель и прогнозируются показатели индекса Legatum, представляющего благосостояние населения, до 2023 года.

Ключевые слова: модель, индекс процветания Legatum, малый бизнес, частное предпринимательство, регрессия, линейная модель, экспоненциальная модель, экспоненциальный модель.

MODELING THE IMPACT OF INDICATORS OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP ON THE LEVEL OF WELL-BEING OF THE POPULATION

Toshaliyeva Saodat Tohirovna-

*Doctor of philosophy in Economic Sciences (PhD), dotsent
Termez State University*

Annotation. The article modeled the effect of the size indicator of small business and private entrepreneurship in the industrial sector on the Legatum Population Welfare index. In modeling, linear, exponential and graded equations were used. The optimal model has been compiled and the Legatum index, which represents the well-being of the population, is projected to be by 2023.

Keywords: model, Legatum welfare Index, Small Business, Private Enterprise, regression, linear model, exponential model, level model.

Kirish. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida respublikadagi dolzarb va muammoli masalalardan biri davlat ijtimoiy siyosatining samaradorligini baholash tizimini shakllantirishdan iborat. Amalda aholining turmush farovonligini baholash uchun turli ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy maqsadi aholi farovonligiga erishishdan iborat. Jahon banki nuqtayi nazaridan aholi farovonligiga erishishdan maqsad eng quyidagi 40 foiz aholining daromadlarini oshirishdan iborat. Barqaror iqtisodiy o'sish bo'lmasa, kam ta'minlanganlarning turmush darajasini oshirish qiyin. Biroq iqtisodiy o'sishning o'zigina farovonlikka erishish uchun yetarli emas. Umumiy farovonlikni yaxshilash uchun o'sish inklyuziv bo'lishi kerak – ya'ni aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qamrab olishi kerak [9].

Aholining farovonligi, bir tomondan, muntazam o'zgarib turadigan turli ijtimoiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarining tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozorida holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi [1].

Legatum farovonlik indeksiga ko'ra, 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi 100-o'rinni egallab, indeks ko'rsatkichi 53,9 ni tashkil etgan. 2021-yilda 2010-yilga nisbatan 9 pog'ona, 2015-yilga nisbatan esa 6 pog'ona yuqorilagan. Eng yuqori ko'rsatkich (98-o'rin)ga 2020-yilda erishilgan (1-rasm). Shuningdek, ijtimoiy kapital bo'yicha 27, salomatlik

bo'yicha 50 yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishilgan. Reytingning yuqori 5 talik o'rinni dunyoning rivojlangan Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Finlandiya, Shveysariya mamlakatlari egallagan. MDH davlatlaridan Qozog'iston 64-o'rin, Qirg'iziston 90-o'rin, Tojikiston 110-o'rin, Turkmaniston 108-o'rinni egallagan. Reytingning eng quyi pog'onasini Janubiy Sudan davlati 167-o'rinni egallab, yakunlagan.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-sonli "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi farmoniga asosan Legatum farovonlik indeksi kabi indikatorlarda respublika ko'rsatkichlarini aks ettirish chora-tadbirlari belgilab berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 2015-yilda BMT Bosh Assambleyasi dunyo mamlakatlari farovonligini oshirish va himoya qilishga qaratilgan 17 ta barqaror rivojlanish maqsadlarini aks ettiruvchi hujjatni qabul qildi. "Barqaror rivojlanish uchun 2030" kun tartibi qashshoqlikni tugatish va dunyo xalqlari uchun sog'lom turmush tarzi, hamma uchun tinchlik, farovonlik va imkoniyatlarni yo'lga qo'yish maqsadini belgilab oldi [15].

"Hayot sifati" tushunchasidan birinchi marta J.K.Galbrayt o'z ilmiy tadqiqotlarida foydalangan va u bu tushunchani "turmush darajasi" tushunchasi bilan bir xil deb baholagan [16].



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2007-2021-yillardagi Legatum farovonlik indeksi ko'rsatkichi

Manba: Britaniyaning Legatum Institute tahlil markazining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Bundan tashqari J.K.Galbrayt o'z ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiy o'sish va uning atrof-muhitga keltiradigan oqibatlarini o'rganib chiqdi hamda u o'z asarlarida iqtisodiy o'sishning atrof-muhit va inson hayot sifatiga ta'sir qiladigan ekologik oqibatlarini asoslab berdi.

P.D.Kosinskiyning ilmiy tadqiqotlarida hayot sifati va turmush darajasi tushunchasi keng qo'llaniladi. Lekin ular bir xil tushuncha emas. Uning fikricha, "turmush darajasi" aholi ehtiyojlarini qondirish darajasi va rivojlanishini o'zida aks ettiradi. "Hayot sifati" tushunchasi esa turli xil (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik) yashash sharoitlarini va odamlarning jamiyat tomonidan yaratiladigan ijtimoiy imkoniyatlardan foydalanish holatini belgilab beradi [18].

V.T.Shishmakov fikricha, "hayot sifati" tushunchasi nafaqat moddiy ne'matlar va xizmatlarni iste'mol qilish darajasini, balki ma'naviy ehtiyojlarni qondirishni, sog'liqni saqlash holatini, aholining umr ko'rish davomiyligini, inson yashash sharoitlarini, axloqiy va psixologik iqlimni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi [17].

Hozirgi vaqtda "hayot sifati" atamasidan inson taraqqiyoti masalalarini muhokama qilish, tengsizlik darajasini aniqlash, shuningdek, aholi farovonligini mamlakatlararo taqqoslashda faol foydalanilmoqda [15].

Aholi hayot sifatini tahlil qilishda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi umumiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Aholi farovonligi darajasi milliy daromad hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromad kabi ko'rsatkichlar, shuningdek, ishsizlik darajasi va turli indekslarda ifodalanishi mumkin. Ana shunday ko'rsatkichlardan biri Legatum farovonlik indeksidir. Legatum farovonlik indeksi (The Legatum

Prosperity Index) Britaniyaning Legatum instituti tahliliy markazining jamlangan ko'rsatkichi bo'lib, dunyo mamlakatlari erishgan yutuqlarni ularning farovonligi va ravnaqi nuqtayi nazaridan baholaydi. Tadqiqot 2006-yildan beri har yili o'tkazib kelinadi. Indeks jamiyatning turli jabhalari va ijtimoiy farovonlik parametrlarini aks ettiruvchi uchta yo'nalishda birlashtirilgan ko'plab turli ko'rsatkichlar asosida tuzilgan. Bular: ochiq jamiyat; iqtisodiyotning ochiq-ochiq; odamlarning imkoniyatlari. Har bir mamlakatning reytingi ushbu ko'rsatkichlarning o'rtacha vaznini hisoblash yo'li bilan aniqlanadi, ularning har biri farovonlik asosi sifatida belgilanadi. Ko'rsatkichlar statistik tahlil, ijtimoiy tadqiqotlar va so'rov ishtirokchilarining ekspert baholariga asoslanadi. Reytingda foydalanilgan statistik ma'lumotlar BMT, Jahon banki, IXTT, JST va boshqa global tashkilotlar hamda xalqaro tahlil markazlaridan olingan [3].

Aholi farovonligi darajasini baholash unga ta'sir etuvchi omillarning ko'pligi sababli murakkab jarayon hisoblanadi. Jahon banki tomonidan qo'llaniladigan aholi farovonligini baholash mezonlaridan T.V.Ignatov [11] o'z tadqiqotlarida foydalanishga harakat qilgan. S.A.Ayvazyan [10] integral indeksdan foydalanish asosida hudud aholisining hayot sifatini baholash metodologiyasini ishlab chiqdi.

Aholi farovonligi darajasi va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash muammosi bugungi kundagi dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi. Rj.Barro, A.V.Banerjee, Y.Duflo [14] tadqiqotlari tengsizlikning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashga bag'ishlangan. Bir guruh mamlakatlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida Duarte, M.Simkotekmes, J.S.Andrade [15] o'z tadqiqotlarida farovonlik darajasi va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlarni baholashda kvantil regresiyalar usulidan foydalanishni tavsiya etishgan.

Turli adabiyotlarda farovonlikka ta'sir etuvchi omillar turli yondashuvlar asosida tasniflangan va turli xil uslubiyotlar ishlab chiqilgan. S.A.Balashova va E.O.Naxatayyan [5] keng qo'llaniladigan global farovonlik indekslarini tizimlashtirish, ularning dolzarblik darajasini tahlil qilish va an'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liqlikni baholash orqali mavjud uslubiyotlarni tizimlashtirish asosida farovonlik indeksi ishlab chiqishgan. O.A.Kislitsyna [6] esa taraqqiyot darajasi va aholi turmush tarzi sifati (farovonligi)ni o'lchashga bo'lgan yondashuvlarni tahlil etib, ularning ahamiyatini yoritib bergan. Shuningdek, muallif integral ko'rsatkichli farovonlik indeksini ishlab chiqqan [6]. M.V.Smirnov tadqiqotlarida mintaqalar ijtimoiy farovonligi darajasini o'lchashning fundamental yondashuvlari muhokama qilingan [8].

Farovonlikni baholashning usullari ko'pligiga qaramasdan, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash masalasi dolzarbligicha qolaveradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Legatum aholi farovonligi indeksiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi hajmi ko'rsatkichining ta'siri asosligini tahlil qilish, uning tarkibiy qismlarining to'liqligini tekshirish, chiziqli, eksponensial va darajali tenglamali ekonometrik modelashtirish asosida natijaviy va omil ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni miqdor va sifat jihatdan ilmiy asoslangan holda baholash hamda qurilgan ekonometrik model asosida aholi farovonligini ifodalovchi Legatum indeksining 2025-yilga qadar ko'rsatkichlari prognoz parametrini ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil va natijalar. Yuqorida aytib o'tilganidek, Legatum farovonlik indeksining shakllanishiga bir nechta omillar asos bo'ladi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi hajmi ko'rsatkichining farovonlikka ta'sirini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyat rivojlanishi, aholini ish bilan ta'minlash, aholi farovonligini ta'minlashda markaziy o'rin tutadi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining Legatum Farovonlik indeksi va Respublika bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi hajmi

Yillar	Legatum farovonlik indeksi (punkt)	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi hajmi (mlrd. so'm)
2007	48,0	2432,4
2008	48,7	3489,5
2009	49,1	5072,3
2010	49,2	10132,9
2011	49,6	13586,8
2012	50,4	17114,6
2013	50,2	23312,0
2014	51,0	30907,0
2015	51,6	39643,5
2016	52,1	50654,5
2017	52,4	61367,8
2018	53,2	87962,0
2019	53,6	83344,2
2020	54,7	103020,8
2021	53,9	121719,2

Manba: tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi.

Ana shu maqsadda korrelyatsion-regression tahlil o'tkazish uchun 2010-2021-yillardagi ko'rsatkichlar tanlab olindi. Unda natijaviy belgi sifatida O'zbekiston Respublikasining Legatum bo'yicha

farovonlik indeksi va omil belgi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi hajmi belgilandi (1-jadval).

2-jadval

Korrelyatsion-regression tahlil natijalari

T/r	Model turi va regressiya tenglamasi	Approksimatsiya ishonchliligi koeffitsiyenti	Fisher F mezoni	Styudent t mezoni
(1)	Ekspontensial $y = 48,995e^{9,864 \cdot 10^{-07}x}$	$R^2 = 0,9141$	$F = 138,3$	$t_a = 802,49$ $t_b = 11,76$
(2)	Chiziqli $y = 48,975 + 5,075 \cdot 10^{-05}x$	$R^2 = 0,9201$	$F = 149,8$	$t_a = 204,27$ $t_b = 12,24$
(3)	Logarifimli $y = 35,168 + 1,583 \ln x$	$R^2 = 0,9219$	$F = 153,5$	$t_a = 27,01$ $t_b = 12,39$
(4)	Darajali $y = 37,379x^{0,031}$	$R^2 = 0,9293$	$F = 170,8$	$t_a = 149,84$ $t_b = 13,071$

Manba: tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi.

Korrelyatsion-regression tahlil Microsoft Excel dasturiy ta'minotida o'tkazildi. Regression tahlil natijalari 2-jadvalda berilgan.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, barcha modellar Fisherning F mezoni bo'yicha $\alpha = 0,05$ darajada ahamiyatli, parametrlari Studentning t mezoniga ko'ra statistik ahamiyatli. Ma'lumki, determinatsiya koeffitsiyenti y ning x orqali tushuntirilishidagi dispersiyasining qismini tashkil etadi. U qancha katta bo'lsa, shuncha yaxshi. Bundan (4) polinomli modelning determinatsiya koeffitsiyenti

($R^2 = 0,9718$)ga ko'ra boshqa modellarga qaraganda iqtisodiy jarayonga mosroq ekanligi kelib chiqadi.

Prognozlash maqsadida omil belgi bo'yicha eksponensial trend tenglamasini tuzdik:

$$x = 2704,4e^{0,277t} \quad (6)$$

(6) eksponensial trend tenglamasi va uning barcha koeffitsiyentlari mos ravishda Fisherning F mezoni va Studentning t mezoni bo'yicha $\alpha = 0,05$ darajada statistik ahamiyatga ega ekanligi va boshqa ahamiyatli bo'lgan trend modellariga qaraganda uning determinatsiya koeffitsiyenti yuqoriligi aniqlandi.

3-jadval

Ekspozitsional trend tenglamasi va uning koeffitsiyentlari

Yillar	Legatum farovonlik indeksi (punkt)	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi hajmi (mlrd. so'm)
2022	54,7	227 512,2
2023	55,1	300 132,7

Manba: tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi.

Xulosalar va takliflar. Farovonlik indekslarini tizimlashtirishni amalga oshirib, aytishimiz mumkinki, obyektiv-subyektiv yondashuvga asoslangan korrelyatsion-regression tahlil natijalari milliy farovonlikni eng to'g'ri baholash imkonini beradi. Ular obyektiv va subyektiv yondashuvlarning ijobiy va salbiy xususiyatlarini minimallashtiradi, shuningdek, mamlakatlarni yillik taqqoslash uchun ham, ma'lum bir mamlakat ichidagi ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish uchun ham keng qo'llaniladi. Shuning uchun Legatum institutining farovonlik indeksini obyektiv-subyektiv yondashuv doirasida tahlil qilish uchun eng maqbul usul hisoblanadi.

Amalga oshirilgan ekonometrik tahlil asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi hajmi va O'zbekiston Respublikasining Legatum bo'yicha farovonlik indeksi o'rtasida kuchli bog'liqlik aniqlandi. Buning sababi shundaki, sanoat ishlab chiqarish hajmi qanchalik ko'paysa, aholi turmush farovonligi darajasi ham shunchalik oshadi.

Farovonlik indeksi va tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi hajmi o'rtasidagi munosabatlar barcha mamlakatlar guruhlari uchun juda yaqin va ushbu baholash usulidan mamlakat va hudud darajasida foydalanish mumkin.

Shunday qilib, Legatum bo'yicha farovonlik indeksidan milliy farovonlikni baholash uchun foydalanish mumkin, chunki u ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda mamlakatlar farovonligini tegishli baholashni anglatadi.

Maqolada keltirilgan yondashuvlar Legatum aholi farovonligi indeksiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi hajmi ko'rsatkichining ta'siri asosligini tahlil qilish bo'yicha qo'yilgan muhim qadamdir, ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlarning muvaffaqiyatini o'z farovonligini subyektiv idrok etish va ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv ko'rsatkichlarini birlashtirgan kompleks indeksni shakllantirish orqali ko'rish mumkin.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aliyev B. Qudrat va farovonlik omili. "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences".
2. Scientific Journal Vol 2. Iss. 3. 2022. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/quadrat-va-farovonlik-omili>
3. Дригайло Д. Процветание на 69 месте. «ЭГ» выпуск № 92 (2391). <https://neg.by/novosti/otkrytj/procvetanie-na-69-meste/>
4. Britaniyaning Legatum Institute tahlil markazining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.
5. Балашова С.А., Нахатакян Е.О. Систематизация подходов к оценке социально-экономического развития стран по индексу благосостояния. // Вестник РУДН. Серия: Экономика. 2017. № 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sistematizatsiya-podhodov-k-otsenke-sotsialno-ekonomicheskogo-razvitiya-stran-po-indeksu-blagosostoyaniya>
6. Кислицына О.А. Подходы к измерению прогресса и качества жизни (благополучия). // Экономический анализ: теория и практика. 2016. № 10 (457). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/podhody-k-izmereniyu-progressa-i-kachestva-zhizni-blagopoluchiya>
7. Кислицына Ольга Анатольевна Национальный индекс качества жизни (благополучия) как инструмент мониторинга эффективности социально-экономической политики в России. // ЖИСП. 2017. № 4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/natsionalnyy-indeks-kachestva-zhizni-blagopoluchiya-kak-instrument-monitoringa-effektivnosti-sotsialno-ekonomicheskoy-politiki-v>

8. Смирнов В.М. Индекс социального прогресса в системе измерителей социального развития России и её регионов. // Проблемы экономики и юридической практики. 2017. № 6. <https://www.vsemirnyibank.org/ru/news/feature/2013/05/08/shared-prosperity-goal-for-changing-world>
9. Айвазян С.А., Степанов В.С., Козлова М.И. Измерение синтетических категорий качества жизни населения региона и выявление ключевых направлений совершенствования социально-экономической политики (на примере Самарской области и ее муниципальных образований). // Прикладная эконометрика. 2006. № 2. С. 18-84.
10. Игнатова Т.В. Национальное благосостояние: концепции, модели, методы оценки. – Ростов н/Д: Изд-во СКАГС, 2007.
11. Asheim G. Green National Accounting: Why and How? Department of Economics. University of Oslo. 1999.
12. Barro R.J. Inequality and Growth in a Panel of Countries. Journal of Economic Growth. 2000. Vol. 5. No. 1. Pp. 5-32.
13. Banerjee A.V., Duflo E. Inequality and Growth: What Can the Data Say? Journal of Economic Growth. 2003. Vol. 8. No. 3. Pp. 267-99.
14. Duarte A., Simões M., Andrade J.S. The welfare state and economic performance: quantiles and nonlinearities. Applied Economics Quarterly. 2016. Vol. 62. No. 4. Pp. 267-294.
15. <https://unctad.org>. United Nations, Treaty Series, vol. 1771, No. 30822. Преобразование нашего мира: Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года.
16. Любовникова Д.О. Качество жизни: трансформация понятия, проблемы оценивания. // Информационные войны. 2013. № 2 (26). С. 57-70.
17. Шишмаков В.Т. и др. Оценка и прогнозирование качества жизни населения городов России. // Вестник NGIENI. 2016. № 1 (56). С. 87-95.
18. Косинский П.Д., Вондарев Н.С. и др. Качество среди обитания и ее влияния на качество жизни населения региона. / Фундаментальные исследование. 2017. №. 8-1. С. 180-184.



ИНКЛЮЗИВ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШ АСОСИДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ВА АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ

Рахмонов Дилшоджон Алиджонович -
Tashkent International University Иқтисодиёт ва
таълим факультети декани и.ф.д., профессор,
Жавлиев Нуриддин Бектемир ўғли -
Тошкент давлат иқтисодиёт
университети ассистенти

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a27

Аннотация. Мақолада Инклюзив иқтисодий ривожланиш асосида камбағалликни қисқартириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш, шунингдек, демократик ва ҳуқуқий жамиятни маънавий-ахлоқий ва маданий ривожлантириш асосида инновацион иқтисодиётни шакллантириш билан бирга аҳоли турмуш даражаси ва фаровонлигини ошириш, мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг замонавий инфратузилмаларини шакллантириш илмий жиҳатдан ўрганилган. Тадқиқотлар асосида илмий хулоса ва илмий тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: инклюзив иқтисодиёт, иқтисодий тараққиёт, иқтисодий ўсиш, ижтимоий соҳа, инсон капитали, инсон тараққиёти индекси, камбағаллик, камбағаллик мезонлари, методологик ёндашув, аҳоли турмуш даражаси, ижтимоий ҳимоя, яшаш минимуми, истеъмол саватчаси, турмуш фаровонлиги.

СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Рахмонов Дилшоджон Алиджонович -
Декан факультета Экономики и образования
Tashkent International University д.э.н., профессор,
Жавлиев Нуриддин Бектемир ўғли -
Ассистент Ташкентский государственный
экономический университет

Аннотация: Сокращение бедности и обеспечение занятости населения на основе инклюзивного экономического развития. Также научно изучено формирование инновационной экономики на основе духовно-нравственного и культурного развития демократического и правового общества, а также повышение уровня жизни и благосостояния населения, формирование современной инфраструктуры социально-экономического развития страны. На основе исследований разработаны научные заключения и научные рекомендации.

Ключевые слова: инклюзивная экономика, экономическое развитие, экономический рост, социальная сфера, человеческий капитал, индекс человеческого развития, критерии бедности, скромность, методологический подход, уровень жизни населения,